



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR LUG'ATINI BOYITISH, TO'G'Rİ TALAFFUZ VA BOG'LANISHLI NUTQNI TAKOMILLASHTIRISH METODLARI

Raxmanova Gulnoza Kadirxanovna

Qo'qon universiteti Maktabgacha ta'lif yo'nalishi MS-3-21 guruh talabasi


Annotatsiya: Ushbu tezisda "Maktabgacha yoshdagi bolalar lug'atini boyitish, to'g'ri talaffuz va bog'lanishli nutqni takomillashtirish metodlari" mavzusining dolzarbli aniqlangan. Bolalar nutqning to'gri rivojlanishida uchraydigan muommolar va yechimlari ko'rsatib berilgan.

Tayanch so'zlar: Fonetik-fonematik, gramatik, leksik, diologik, monologik, metodlar, lug'at. Inson butun umri davomida til boyliklarini o'zlashtirib, nutqini takomillashtirib boradi.

Har bir yosh bosqichi uning nutqining rivojlanishiga yangi narsalarni olib keladi. Erta bolalik davridayoq bolada muloqotga bo'lgan ehtiyoj bo'ladi. U bu ehtiyojni eng oddiy nutq vositalari: g'uvullash, g'o'ng'irlash, bиринчи so'zlar orqali qondiradi. Nutq eng boshidanoq ijtimoiy hodisa, muloqot vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Biroz vaqt o'tgach, nutq ham atrofdagi dunyoni bilish, harakatlarni rejalashtirish vositasiga aylanadi. Bolaning so'z boyligini rivojlantirish, bir tomonidan, tafakkur va boshqa aqliy jarayonlarning rivojlanishi bilan, ikkinchi tomonidan, nutqning rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir. Nutqning barcha tarkibiy qismlarining rivojlanishi: nutqning fonetik-fonematik va grammatik tuzilishidir. Ontogenezda lug'atning rivojlanishi bolaning atrofdagi voqelik haqidagi tasavvurlarining rivojlanishi bilan bog'liq.

Nutqni rivojlantirish hozirgi zamonda dolzarb muammoga aylanib bormoqda. Yosh avlod nutqini shakllantirishda oila, o'qituvchilar va tarbiyachi pedagoglarning ma'suliysi juda kattadir. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashning asosiy vazifalaridan biri yozish, nutq va og'zaki muloqotning rivojlanishi. Bolalarning lug'atini boyitish, to'gri talaffuz qilishga o'rgatish, nutqining ravon rivojlanishi uchun metodlardan to'gri foydalana olish juda muhimdir.

Nutqni rivojlantirish, jumladan, lug'at boyligini boyitishda kattalarning nutqiy faoliyati va ularning bola bilan muloqoti muhim omil hisoblanadi. 1 yoshda kichkintoy 10-15 ta so'zni faol biladi, 6 yoshga kelib esa uning faol lug'ati 3-3,5 mingtaga yetadi. Bolada so'z boyligining shakllanishi so'z yasalish jarayonlari bilan chambarchas bog'liqdir. Tilning leksik darajasi so'z yasashning harakat va mexanizmlari natijasi bo'lgan leksik birliklar yig'indisidir. Bolaning tafakkuri, nutqi rivojlanib borishi bilan bolaning lug'at boyligi nafaqat boyibgina qolmay, balki takomillashib boradi. Shunday ekan, tarbiyachi bolalar lug'atini boyitishda avvalo o'zi nutq madaniyatiga rioya qilishi lozim. Tarbiyachi nutqi bolalarni diqqatini torta oladigan va tushuna oladigan tempda bo'lishi kerak. Mashg'ulot jarayonida bolalarni adabiy me'yorlarga mos tilda so'zlashishni o'rgatishi lozim. Maktabgacha yoshdagi bolalarga mazmunan oddiy





bo'lgan, ayrim so'zlarni, shu jumladan maqollar va matallarni qabul qilish, tushunish, eslab qolish va kezi kelganda foydalanishni o'rgatish zarur. Biroq orada uchraydigan ayrim iboralarni tarbiyachi o'z nutqida bolalarga tushunarli bo'ladigan so'zlar bilan ifodalab o'tishi kerak bo'ladi. Bundan tashqari bolalarni luga'tini boyitishga she'rlar, tez aytishlar yod oldirish, hikoyalarni qayta hikoya qilib berish, tasvirlar, suratlar orqali hikoyalar tuzish, savol-javoblar qilish va albatta savollarga to'liq javob berishni o'rgatish, turli xil ta'limiy o'yinlar, til mashqlari orqali erishish mumkin.

Bolaning aqliy rivojlanishining asosiy shartlaridan biri nutqni o'z vaqtida rivojlantirishdir. Kechiktirilgan nutq namoyon bo'lishi zaif muloqot, so'z boyligi va boshqa nutq buzilishlaridan kelib chiqadi. Men o'z faoliyatim davomida 6-7 yoshli nutqida nuqsoni bor ko'plab bolalarni tarbiyaladim. Ular orasida "R" tovushini "L", "Y", "AB" va boshqa tovushlar bilan talaffuz qiladigan bolalarni kuzatganimda, haqiqatdan nutqida kamchiligi bor bolalar bilan bir qatorda, "R" tovushini o'zi o'rgangan tovush bilan talaffuz qilishga odatlanib qolgan ayrim bolalarni uchratdim. Bunday bolalarni aniqlab olishda mashg'ulot jarayonlarimda tadqiqotlar o'tkazib bordim. O'yinlar, she'rlar, tez aytishlar yod oldirganimda "R" tovushini "AB" deb talaffuz qiladigan tarbiyalanuvchim "R" tovushini ayniqsa tez aytishlarda aniq aytayotgani ma'lum bo'ldi. Bundan kelib chiqadiki, bolalarning ilk nutqi rivojlanayotgan paytdan uni buzilishiga yo'l qo'ymaslik, to'g'ri talaffuz qilishni o'rgatib borish hamda nazorat qilib borish joiz bo'ladi. Nutqning darajasi bolaning muktabda o'qish samaradorligiga ta'sir qiladi, shuning uchun ona tilini o'zlashtirish maktabgacha yoshdag'i muhim bosqichdir.

Bolalar lug'atini boyitishda bog'lanishli nutqni takomillashtirish metodlaridan foydalanish ham yaxshi samara berib kelgan. Bolalarga ertak hikoya qilib bersam, ulardan qayta so'rayman. Ya'ni shunday usuldan foydalanamanki, natijasida bolalar diqqatini jamlashni, eshitishni, gapni to'ldirishni, ertakni to'liq so'zlab berishni o'rganadi. Shunday vazifa beriladi: Bir bola ertakni boshlab, keyingi bola to'xtagan joyidan davom ettirishi kerak. Yana hikoya qilingan ertakni qay darajada to'g'ri aytayotgani, orada hech qanday voqeа qolib ketmayotganini bolalar diqqat bilan eshitib, xato joylari bo'lsa to'ldirib ketishlari kerak bo'ladi. Bunda hikoya qilingan ertak bolalarni xotirasida yaxshi saqlanib qoladi, so'z boyligi oshadi, nutqi ravon rivojlanadi.

Maktabgacha yoshda bola shunday lug'atga ega bo'lishi lozimki, toki u bolaga tengdoshlari va kattalar bilan muloqot qilish, muktabda muvaffaqiyatli ta'lim olish, adabiyotni, televizion va radio eshittirishlarini tushunish imkonini bersin. Shuning uchun maktabgacha ta'lim pedagogikasi lug'atni rivojlantirishga nutqni rivojlanishning muxim vazifalaridan biri sifatida qaraydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. F.R Qodirova , R.M.Qodirova "Bolalar nutqini rivojlanish nazariyasi va metodikasi" 2006 yil.
2. Лупичева Наталя Сергеевна «Методика развития речи детей дошкольного возраста

